



KITOB RAQAMI:

8008715TIP: **032**

**O'ZBEK TILI VA ADABIYOT FANIDAN
BILIMLARNI BAHOLASHNING
MILLIY TEST TIZIMI**

SAVOLLAR KITOBI

Test topshiriqlari kitobi raqami						
8	0	0	8	7	1	5
(1)	(1)	(1)	(1)	(1)	(1)	(1)
(2)	(2)	(2)	(2)	(2)	(2)	(2)
(3)	(3)	(3)	(3)	(3)	(3)	(3)
(4)	(4)	(4)	(4)	(4)	(4)	(4)
(5)	(5)	(5)	(5)	(5)	(5)	(5)
(6)	(6)	(6)	(6)	(6)	(6)	(6)
(7)	(7)	(7)	(7)	(7)	(7)	(7)
(8)	(8)	(8)	(8)	(8)	(8)	(8)
(9)	(9)	(9)	(9)	(9)	(9)	(9)
(0)	(0)	(0)	(0)	(0)	(0)	(0)

1. Tilshunoslik nazariyasi (*12 ta topshiriq*)
2. Adabiyot nazariyasi va tarixi (*5 ta topshiriq*)
3. O'qish savodxonligi (*15 ta toshiriq*)
4. Lingvistik va badiiy tahlil (*12 ta tophiriq*)
5. Yozish savodxonligi (*1 ta topshiriq*)

TALABGOR DIQQATIGA!

1. Savollar kitobida 45 ta topshiriq va har bir yopiq testda to'rttadan variant mavjudligini tekshiring.
2. Nuqsonlar aniqlanganda darhol guruh nazoratchisiga ma'lum qiling.
3. Ushbu kitob raqamini javoblar varaqasiga ko'chiring.
4. Kitob muqovasiga o'zingiz haqingizdagi ma'lumotlarni yozing va imzo qo'ying.
5. Ushbu kitob guruh nazoratchisiga topshirilishi shart.

Familiyangiz: _____

Ismingiz: _____

Otangizning ismi: _____

.....

Imzo

**Yuqoridagi ma'lumotlar qayd etilmagan yoki
kitobga shikast yetkazilgan hollarda e'tirozlar ko'rib
chiqilmaydi.**

1. Imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilgan so‘zlar qatorini aniqlang.

- A) O‘z-o‘zligicha, tarjimayi-hol, chippa-chin
- B) O‘zicha-o‘zi, qo‘yarda-qo‘ymay, oz-moz
- C) O‘ziga-o‘zi, xilma-xil, keta-ketguncha
- D) O‘z-o‘zicha, besh-battar, chor-atrof

2. Berilgan parcha haqida qaysi hukm to‘g‘ri?

- Assalomu aleykum Barnopa!
- Va aleykum assalom.
- Bugun o‘rtoqlarim bilan toqqa chiqmoqchi edik. Kechroq qaytamiz.
- Kunora nima bora sizlarga toqqa?! Ha, mayli, faqat vaqtliroq qaytishga harakat qilinglar, hopmi?
- Hop, raxmat.

- A) Unlilar va undoshlar imlosi bilan bog‘liq xatolik mavjud.
- B) Asos va qo‘sishchalar imlosi bilan bog‘liq xatolik mavjud.
- C) Qo‘shib yozish imlosi bilan bog‘liq xatolik mavjud.
- D) Chiziqcha imlosi bilan bog‘liq xatolik mavjud.

3. Qaysi so‘z to‘g‘ri izohlangan?

- A)


ma’ nodoshi: bo‘g‘im	band (ot)	talaffuzdoshi: bo‘sh emas
-------------------------	--------------	------------------------------
- B)

shakldoshi: gumbaz	toq (sifat)	ziddoshi: juft, qo‘s
-----------------------	----------------	-------------------------
- C)

ma’ nodoshi: tayyor	naqd (sifat)	talaffuzdoshi: puch, xom
------------------------	-----------------	-----------------------------
- D)

shakldoshi: ruxsat	izm (ot)	ma’ nodoshi: ixtiyor, erk
-----------------------	-------------	------------------------------

4. Nutqda o‘zaro ma’ nodosh so‘zlarni aniqlang.



5. Qaysi gapda barcha qo‘sishchalar usluban to‘g‘ri qo‘llangan?

- A) Ko‘plar o‘z obro‘sni tashvishini qilishadi, faqat ba‘zilargina o‘z vijdoni tashvishini qiladi.
- B) Qo‘liga quroq ushlagan kishining qurolsiz oyog‘idan yordam istashi beo‘xshov ko‘rinadi.
- C) Birlashganda maydalar yiriklashadi, kelishmovchilikda buyuklar parchalashadi.
- D) Mardlar bajarishning imkoniyati borini qilsa, boshqalar esa buni ham qilmaydi.

6. Qaysi so‘z to‘g‘ri izohlangan?

- A) Muttasil – tartibli ravishda uzlusiz davom etadigan, kanda bo‘lmaydigan.
- B) Muallaq – havoda, biror narsaga tegmay, osilnay turib qolgan.
- C) Muntazam – bir-biriga ulanib ketgan; uzlusiz, to‘xtovsiz.
- D) Mavhum – kishini vahimaga soladigan, qo‘rinchli.

7. Har ikkala parchada ham ishtirok etgan qo'shimchlar haqida qaysi izoh **YANGLISH?**
- I. *G'irt nodonlik – bu hali illat emas, sayoz o'zlashtirilgan bilimlar jamlash undan battarroqdir.*
- II. *Barcha yomon odatlarning eng yomoni, kishi bilimsizligini, bedobligini ko'rsatuvchi belgi – bu har narsani o'z nomi bilan atamaslikdir.*
- A) *Har ikkala parchada ham belgisiz qo'llangan bir xil kelishik qo'shimchasi ishtirok etgan.*
- B) *Har ikkala parchada ham faoliyat-jarayon otini yasovchi qo'shimcha ishtirok etgan.*
- C) *Har ikkala parchada ham fe'lning bir xil vazifa shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha ishtirok etgan.*
- D) *Har ikkala parchada ham fe'lning nisbat shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha ishtirok etgan.*
8. Har uchala parchada ham ishtirok etgan fe'l shakllarini aniqlang.
- I. *Hasad shunday dardki, dori-yu darmon, Qabul qilmas dilni o'rta beomon.*
- II. *Kuching borki, kibrga bo'lma yo'ldosh, Kibr bir kun ko'zingdan to'kkusi yosh.*
- III. *Harakat qil bugun bug'doy sochishga, Ertakuching yetmas arpa topishga.*
- A) *Har uchala parchada ham ikkinchi shaxs birlik sondagi kelasi zamon fe'l ishtirok etgan.*
- B) *Har uchala parchada ham ikki xil vazifa shakliga mansub aniq nisbatdagi fe'l qatnashgan.*
- C) *Har uchala parchada ham buyruq maylidagi o'timsiz qo'shma fe'l qatnashgan.*
- D) *Har uchala parchada ham kelasi zamon shaklidagi sodda tub fe'l ishtirok etgan.*
9. Qaysi gapda maqsad ma'nosini ifodalashga xizmat qilgan ko'makchi qatnashgan?
- A) *Kishiga ikkita qulqoq va bitta til ko'proq eshitish va kamroq gapirish uchun berilgan.*
- B) *Tanlovda ishtirok etish va sovg'alarga ega bo'lish uchun avval ro'yxatdan o'ting.*
- C) *Ikromjon ularning gapiga xalal bermaslik uchun yonlaridan tez o'tib ketdi.*
- D) *Xatoni tuzati, haqiqatni yuzaga chiqarish uchun jasorat kerak bo'ladi.*
10. Berilgan gapdagi sintaktik birliklar qaysi javobda to'g'ri tahlil qilingan?
- Ilmsiz tajriba bilan shug'ullanishga qiziqqan kishi ruli ishlamaydigan yoki kompassiz kema boshqaruvchisiga o'xshaydi: u qayerga borishini hech qachon bilmaydi.*
- A) *Kesimga to'g'ridan to'g'ri tobelangan vositali va vositasiz to'ldiruvchi qatnashgan.*
- B) *Sifatlovchi aniqlovchilar ot bilan ifodalangan vositali to'ldiruvchi va egaga tobelangan.*
- C) *Aniqlovchi va holning ikki ma'no turi bosh va ikkinchi darjali bo'laklarga tobelangan.*
- D) *Shaxs, narsa va ish-harakatning belgisini anglatgan bo'laklar besh o'rinda qatnashgan.*
11. Berilgan gapdan mazmun va grammatik jihatdan to'g'ri bog'langan birikmalarini aniqlang.
- Bu gumbur-gumbur sadolar-u otashin qo'shiqlar qulog'imga chalinishi bilan xuddi nog'oraga o'rgangan harbiy otday oyoqlarim o'zidan o'zi raqsga tushib, yuragim hapqirib ketaverar edi.*
- A) *Bu qo'shiqlar // otday raqsga tushib*
- B) *Qulog'imga chalinishi // sadolar-u otashin*
- C) *Xuddi otday // raqsga tushib ketar edi, hapqirib ketar edi*
- D) *Gumbur-gumbur qo'shiqlar // qo'shiqlar qulog'imga chalinishi bilan raqsga tushib*

12. Berilgan parchdagi vergul tinish belgisining qo'llanish qoidasiga mos gapni aniqlang.

Yalanglik ko‘m-ko‘k maysa, oyoq bosilmagan; shabnam nuqraday yiltillar, tep-tekis edi.

- A) *Sizni sevgan edim: sodiq, vafodor, Endi haq aylasin boshqacha dildor.*
- B) *Xona sovuq, bir stol, bir karavot; allaqanday qo'lansa hid anqir edi.*
- C) *Xayolimda: katta sahro, men minib otga Shamoldan tez, bulutlardan yengil chopaman.*
- D) *Qo'y, yaxshi chol! Ko'nglim to'ldi, gaplashamiz so'ng. Eshitasanmi, og'ir, hazin mung?*

13. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani qahramoni **Sultonali** haqida qaysi ma’lumot to‘g‘ri?

- A) *Xon Anvarning qochishida uni ayblab, hisbga oladi, va o‘limga hum etadi.*
- B) *Anvarining o‘rniga mingboshi lavozimini egallah uchun unga xiyonat qiladi.*
- C) *U forscha va sansikritchani yaxshi bilgani uchun xon saroyida tarjimon bo‘lib ishlardi.*
- D) *U bir guruh muftilar bilan til biriktirib, do‘sining qayerdaligini xonga aytib beradi.*

14. Primql Qodirovning “**Yulduzli tunlar**” romani haqida qaysi ma’lumot to‘g‘ri?

- A) *Bobur Ibrohim Lo‘dining onasi malika Baydani keyinchalik isyon qilmasligi uchun zindonband qiladi.*
- B) *Me’mor Fazliddin oddiy hunarmand bo‘Isada, shoh qizi Xonzodabeginga uylanadi.*
- C) *Malika Bayda Boburning qilgan yaxshiliklariga qaramasdan uni o‘ldirish uchun zaharlaydi.*
- D) *Bobur Hindistonda qolishni istagan Xoja Kalonni majburan Kobulga jo‘natib yuboradi.*

15. Odil Yoqubovning “**Ulug‘bek xazinasi**” romani haqida to‘g‘ri ma’lumotni aniqlang.

- A) *Qalandar Qarnoqiy jonini xatarga qo‘yib, toju taxtidan ayrilgan hukmdorning qimmatbaho xazinasi bo‘lmish kitoblarini asrab qolishda Ali Qushchiga yordam berdi.*
- B) *Ulug‘bek tushida ov qilish uchun tog‘-u toshlarga chiqib ketgan Sulton Jondorning kiyik kallasini emas, balki qonga bo‘yalgan o‘z boshini olib kelganini ko‘radi.*
- C) *Dushman qo‘smini tarkibidagi fillardan qo‘rqib, jang maydonini tashlab ketgani tufayli Sulton Jondor Ulug‘bek farmoni bilan qatl ettiriladi.*
- D) *Nizomiddin Xomush va Xo‘ja Salohiddin zargar Ulug‘bekning hech bir kitobi makruh emasligini aytgani uchun o‘z lavozimidan ozod etiladi.*

16. Abdurauf Fitratning “**Abulfayzxon**” dramasi orazlari yuzasidan bildirilgan qaysi izohlar to‘g‘ri?

- 1. **Abulfayzxon** – o‘tirish uchun akasining bahridan o‘tgan, yon-atrofidagi ikkiyuzlamachi xoinlar dastidan, qolaversa, o‘zining nihoyatda kaltabinligi tufayli mag‘lubiyatga uchragan obraz.
- 2. **Ibrohimbiy** – garchi xonning oqilonasi siyosatini qoralasa ham, taxt uchun eng yovuz ishlarni ham qilishdan qaytmaydigan obraz.
- 3. **Rahimbiy** – zamon ahvolidan oshkora norozi, yurt tinchligi uchun kuyingan, xalq manfaatini ko‘zlaydigan obraz.
- 4. **Hakimbiy** – xonning eng ishonchli odamlaridan biri bo‘lsa-da, dushman bilan do‘splashgan, o‘z yurtini dushman qo‘liga topshirishdan qaytmaydigan obraz.

- A) 1 va 4 B) 2 va 3 C) 1 va 3 D) 2 va 4

17. Sharof Boshbekovning “**Temir xotin**”
komediyasidan olingan parcha haqida qaysi izoh
to‘g‘ri?

Qishloqdagi oddiy, kamtarona hovli. To‘g‘rida bir necha ustunli peshayvon, o‘ngda pastakkina ko‘cha eshik, oldinroqda yog‘och karavot. Sahnadagi har jihoz, har bir buyumda nimadir yetishmaydi: eshik-deraza romlarining yarmi bo‘yagan, qolganining rangi o‘chib ketgan, yog‘och karavotning bitta oyog‘i yo‘q, ko‘rpayostiglarga yamoq tushgan, piyolalarning labi uchgan yoki chegalangan, choynakning jo‘mrugiga tunuka kiygizilgan va hokazo.

- A) *Qahrmonning g‘arib turmush tarziga ko‘nikkan va boshqacha yashashni xayoliga ham keltirmaydigan odam ekanligini namoyish etishga xizmat qilgan.*
- B) *Insonning moddiy boyligi emas, balki unga bir umr hamroh bo‘lib qoladigan ma’naviy boyligi har narsadan ustunligi g‘oyasini ifodalashga xizmat qilgan.*
- C) *Daromadi yetarli bo‘lsa-da, bor pulini ichkilikka sarflaydigan, ko‘p sayohatda yuradigan kishilarining fojiali hayotini ko‘rsatishga xizmat qilgan.*
- D) *Shaharga ko‘chib ketgan odamlarning qishloqdagi uylari qarovsizlikdan xaroba holiga kelib qolishi mumkinligi aks ettirishga xizmat qilgan.*

Berilgan matnni o‘qing va u asosida 18-22-topshiriqlarni bajaring.

Xurmo (*Diospyros*) – xurmودoshlar oilasiga mansub subtropik daraxt yoki butalar turkumi, ekiladigan meva daraxti. Tropik va subtropik mintaqalarda 500 ga yaqin turi uchraydi. Xitoy, Yaponiya, O‘rta dengiz bo‘yi mamlakatlari, Avstraliya, AQSH, Kavkaz, O‘rta Osiyoda ekiladi. Mevasi uchun, asosan, sharq xurmosi, sovuqqa chidamli virginiya xurmosi (*D. virginiana*), shuningdek, Kavkaz xurmosi (*D. lotus*) o‘stiriladi.

/1/ O‘zbekistonda ekiladigan sharq xurmosi (*D. kaki* Ttip.)ning vatani – Xitoy. Daraxti 8–12 m, chiroqli, shox-shabbasi dumaloq yoki piramidasimon. 100–400 yil, ba’zan undan ham ko‘proq yashaydi, lekin 50–60 yilgacha yaxshi meva beradi.

/2/ *Xurmo* – 15–20° gacha sovuqqa chidaydi, yorug‘sevar o‘simlik. Bargi yirik tuxumsimon, usti to‘q yashil, orqasi tukli, ketma-ket joylashgan, to‘kilish oldidan qizg‘ish rangga kiradi. Guli bir, ba’zan ikki jinsli. Aprel–mayda gullaydi, oktabr–noyabrda pishadi. Mevasi turli shaklda (500 g gacha). Xurmo tarkibida qand, S vitaminini, protein, temir tuzlari, oqsil, oshlovchi moddalar va boshqalar mavjud. /3/ Hosilini olish uchun, ko‘pincha, sharq xurmosi yetishtiriladi. Mevasi 2–3 oy saqlanadi. Yangiligida hamda quritilgan holda iste’mol qilinadi. Qandolatchilik sanoatida ishlatiladi, likyor, vino, jem tayyorlanadi. Xurmo, asosan, payvandlash yo‘li bilan ko‘paytiriladi. Ko‘chati kuzda yoki bahorda 8x6 va 6x6 m sxemada ekiladi. Qumli, shag‘alli sho‘r yerlarni yoqtirmaydi. 3–4 yili hosilga kiradi, /4/ 10–12 yoshida to‘liq hosil bera boshlaydi. Bir tup daraxti 250 kg gacha hosil beradi. O‘suv davrida yer sharoitiga qarab 10–12 marta sug‘oriladi; o‘g‘itlanadi, atrofi yumshatib turiladi.

18. Qaysi gap matn mazmuniga mos holda shakkantirilgan?

- A) Xurmo turopik va subtropik mintaqalarda o‘stiriladigan daraxt va buta hisoblanadi.
- B) Asl vatani Xitoy bo‘lgan xurmo Yaponiya va O‘rta dengiz bo‘ylarida ham yetishtiriladi.
- C) Oliy nav hisoblanuvchi sharq xurmosi O‘zbekiston hududida ham parvarishlanadi.
- D) Sharq va G‘arbda xurmoning umumiy hisobda mingga yaqin turi yetishtiriladi.

19. Qaysi ma’lumot matn mazmunida ifodalangan?

- A) Virginiya va Kavkaz xurmosi, asosan, havo harorati past bo‘lgan mintaqalarda yetishtiriladi.
- B) Soyada yetishtirilgan xurmolarning tami yorug‘likda yetishtirilgan xurmolarnikidan farq qiladi.
- C) Sharq xurmosi o‘z umri davomiyligining dastlabki bosqichlarida hosil unumdorligini saqlab qoladi.
- D) Yurtimizda bo‘yi o‘n metrga teng, novdalari dumaloq va piramidasimon sharq xurmosi yetishtiriladi.

20. Qaysi ma’lumot matn mazmunida aks etgan?

- A) Xurmo hosili, asosan, yozda o‘zida kerakli vitaminlarni yig‘ib iste’molga tayyor bo‘ladi.
- B) Xurmo bargi tusining o‘zgarishiga uning meva tugish yoki tugmasligi ta’sir ko‘rsatmaydi.
- C) Xurmo barglari o‘z mevasini quyoshdan asrash uchun erkin joylashuvga ega bo‘ladi.
- D) Xurmo issiq havoda ham, sovuq havoda ham yetishtiriladigan o‘zimlik hisoblanadi.

21. Qaysi ma’lumot matn mazmuniga mos?

- A) Xurmo aksariyat hollarda xurmo urug‘ini yerga qadab ekish orqali ko‘paytiriladi.
- B) Xurmodan turli shirinlik, spirtli ichimliklaar va murabbo tayyorlashda foydalilanadi.
- C) Olti oy davomida saqlangan xurmo mevasini bemalol iste’mol qilish mumkin.
- D) Xurmo tarkibida inson organizmi uchun eng kerakli vitaminlar mavjud.

22. Arab raqamida ajratilgan qaysi gap matnning mazmuniy tuzilishida **o‘rinsiz takrorni** keltirib chiqargan?

- A) 3 B) 4 C) 1 D) 2

Berilgan matnni o'qing va u asosida 23–27-topshiriqlarni bajaring.

K U - K U - K U ... (Hikoya)

I

U juda oriq, o'zi sariq bo'lgani uchun siyraklashib qolgan sochlariyam sarg'ish. Qachonlardir yaxshigina she'rlar yozib, endi rasmiy ishlar girdobiga tushib, nazmiy tuyg'ulari so'nib qolgan. Sal engashib, ohista-ohista, nimalarnidir o'ylab, xafaqon kasali bilan og'rib yuradi. Xafaqon kasaliga yo'liqqandan buyon ichmaydi, chekmaydi. So'zlaganda ovozi og'ir kasallarnikiday nimjon, xasta chiqib, diqqat qilmagan odam yaqinida bo'lsayam eshitmaydi. Kulganda tishlari ko'rmasligi uchun lablarini lablariga shunday qattiq bosadiki, qo'y ko'zlarini yumilay-yumilay deb, yuzlari qizarib ketadi...

U jurnallarga obuna bo'lishni yaxshi ko'radi. Har yili ko'plab xorijiy va o'zimizning jurnallarga obuna bo'ladi. Uyida jurnallardagi rasmlarni, Rembrandt, Rafael, Bottichellining nodir asarlarini tomosha qilib o'tiradi. U yana qushlar, ularning sayrashiniyam yaxshi ko'radi. Ishlab charchaganida o'zi direktor o'rinbosari bo'lib ishlayotgan shahar istirohat bog'ining xilvat joyiga o'tirib, Shishkinding rasmlarini tomosha qiladi, qushlarning sayrashini kutadi. Ayniqsa, Shishkinding «Bug'doyzor»iga uzoq tikilib qoladi. *[1] U o'zicha ikki toifadagi odamlarga achinadi. Biri – Shishkinding rasmlari oldidan beparvo o'tgan odamga, ikkinchisi – qushlar sayrayotganda so'zlashgan odamga. Shu odamlarni to'xtatib, degisi keladi: «Birodar, to'xtang, ko'ryapsizmi Shishkinding gayinlarini: hayot go'zal, shunaga...» «Birodar, eshityapsizmi, tog' chumchug'i sayrayapti. Bu ohangni Betxoven ham bilmasa kerak. Afsus, bu ohanglarning nomi yo'q. Eshiting, qushlarni eshititing...»*

Shu payt daraxt shoxlarida qo'nib turgan qushlarning turli nag'madagi sayrashlari eshitiladi. U «Munojot»ni tinglayotganday boshini ma'yus egib, eshitadi. Yuzlariga tabassum yuguradi. O'rnidan turib, qo'llarini ko'ksiga qo'yadi, qushlarga ta'zim qiladi:

– Ofarin, birodar, ofarin. Qulluq!..

Xayolan qushlar ovozi qanotida uzoqlarga – oppoq bulutlar olamiga uchib ketadi...

U: «Ay, birodarlar, sizlar uchun yog'ochdan uya yasadim, shunaqa. Tog'lardagi birodarlarimizgayam aytинг, bog'imizga kelsinlar. Men ulargayam uya qurib beraman, shunaqa...»

U xushvaqt jilmayadi...

II

U keksa ota-onasini ko'rish uchun qishloqqa borib, tez qaytdi. Mashina baland dovondan soyga tushib, shovullab oqayotan ko'm-ko'k suvdan o'tdi. Chapga burilib, suv yoqasida to'xtadi. U mashinadan tushib, kostyuming tigmalarini o'tkazdi. Tevarakka qaradi: yo'lni ikki tomonidan haybatli tog' cho'qqilar o'rav turibdi. Botayotgan quyosh tog' cho'qqisi uchida osilib qolganday... Tog'dan oqib tushayotgan suvning shovullashi eshitilib, suv oqayotgan soydan salqinlik ufurib turibdi. Tog' qushlarining nag'malari... Bir gala yovvoyi kaptarlar cho'qqilar uzra uchib yuribdi. Kaptarlar qo'nganda, chap qo'lini peshonasi ustiga soyabon qilib qaradi – ko'rmadi. Sayr uchun kaptarlar qo'ngan tarafga yurdi. Katta tosh ostida bir narsaning pitirlayotganini ko'rdi. To'xtab, o'sha yoqqa yurdi. Ikki tosh orasidagi qizil tuproq ustida turgan inni ko'rdi. Yaqinroq bordi. Xas-xashakdan ustalik bilan yasalgan inda qush bolasi, yumshoq tuproqda esa yana biri... Yerdagisi tipirchilab inga chiqmoqchi bo'lar, ammo chiqolmas, indagisi esa bo'yinlarini qisib, pusib yotardi. U in yaqinidagi sariq toshga o'tirib, ularni uzoq tomosha qildi. *[2] Musicha bolalarining onasi yo'q... Yo ular onasizmikin? Quyosh botib, tog'larga oqshom cho'kdi. Musichalarning onasi hamon yo'q. U ketmoqchi bo'ldi. Shunda musichalar bo'yinlarini cho'zib, biram g'alati chiyilladiki... Uning yuragi uvushib ketdi. Musichalarni olib ularning ho'l badanini to'liq yompagan junlarini silay-silay pastga tushdi. «Eng beozor qush. Bular odamlarga faqat yaxshilik tilaydi. Kukulashlari, ta'zimlari... shunaqa», dedi u o'zicha. Ro'molchasini mashina o'tirg'ichiga yoyib, ustiga musicha bolalarini qo'ydi. Idoraga kelganlarida u musicha bolalarini divanga qo'yib, junini siladi. Ularni hovliga – daraxtlar ostiga qo'yib yubormoqchiyam bo'ldi. Tog'dagiday bu yerda ham o'z tirikchilagini o'zi qilar, deb o'yadi. Avaylab, hovliga olib chiqdi. Ko'm-ko'k o'tlar ustiga qo'yib birpas kuzatib turdi. Ular joyidan qimirlayvermagach, mendan hayiqyapti, deb o'ylab, xonasiga qaytib kirdi. Birpas yangi jurnallarni titkilab o'tirib, derazadan qaradi. Musicha bolalari daraxt yonida boshlarini bir-biriga tegizib, mudrab, mung'ayib turardilar!.. U shoshib borib, ularni olib keldi. Hech qayoqqa chiqarmaslikka ahd qildi. Ularga joy qidira boshladidi. Qorovulxonha qulayday, ayniqsa, burchakda turgan shkaf tepasi. U hovlidan rangi ko'chib ketgan eski mis tovoqcha topib, unda suv olib keldi. Yer, yemasa turar, degan xayolda bozordan yarim kilo tariq olib keldi-da, bir siqimini musichalar oldiga sepib, uyiga ketdi.*

Musichalar o'z umri bilan tug'ilgan ekan: katta bo'lib qolishdi.

III

Sovet – Yapon shartnomasi imzolanib, alohida moddasi bir davlatdan ikkinchi davlatga uchib o’tgan qushlarga ozor bermaslik, ularni avaylash haqida edi. U gazetadagi shu moddaga tikilib to’ymaydi. Quvonchini bog‘ qorovuliga izhor etadi:

– Eshtidilarmi, otaxon. Hukumatimiz ko‘p tanti hukumat, qushlar to‘g‘risidayam g‘amxo‘rlik qilyapti, shunaqa. Rahmat, hukumat, rahmat. Aytganday, qushlarga uya yasang, deb edim, tayyor bo‘p qoldimi?

– Endi ikkita bo‘ldi.

/2/ – E, tezlatining-da, otaxon, men qushlarga va’da bergenman, birodarlarimizni olib kelninglar deb.

Hali-zamon keladilar, shunaqa...

U qorovulxonaga kirdi. Musichalar endi uchadigan, xonada yo‘rg‘alab yuradigan, bir-birlarini quvalab stollar ostiga kirib ketadigan bo‘lgan edilar. Sarg‘ish junlari qorayib, tumshuqlari bigizday... Chiroqli! Uzun qanotlarining usti sal qoraygan, osti esa oppoq. Birining qanotlari xuddi kaptarlarikiday ola. U poyandoz ustida yo‘rg‘alab yurgan musichalarga qarab zavqlanib:

/3/ – E-e, juda go‘zal bo‘psizlar-ku, birodarlar. Yaxshi emas, ko‘z tegishi mumkin, shunaqa, — dedi. Tariq olib kelgani bozorga bordi. Sotuvchi cholga:

– Iltimos, yaxshirog‘idan bering, yaqinda musichalarim kukulaydi, shunaqa, — dedi.

Chindan ham musichalar oqshomda ilk bor... ilk bor yonma-yon turib, vazmin, samimiy ta’zimlar bilan salom qildilar:

– Ku-ku-ku-ku...

IV

U musichalar ketib qolmasligi uchun derazalarni yopib qo‘ydi. Xonada musichalar qo‘nib-uchib turadigan joy qilmoqchi bo‘ldi. Hovlidagi o‘rikning kichkina shoxchasini sindirib oldi-da, devorga suyab qo‘ydi. Musichalar qo‘nishiga bu noqulayday tuyuldi. Idora supurish uchun ishlatalidigan paqirlarning biriga pitcha loy olib keldi-da, o‘rik shoxchasini loyga suqib qo‘ydi. Paqir atrofiga don sochib, kichkina mis idishda suv olib keldi. Musichalar xona ichida aylanib uchib, stol ustiga qo‘ndilar-da, baravariga boshlarini egib, ta’zim qildilar:

– Ku-ku-ku-ku...

U o‘zida yo‘q quvonib, bosh irg‘adi:

– Bali, bali...

V

... U ertalab o‘zini yomon sezib, valeryanka ichdi. Yonboshlab yotganida qorovul telefon qilib, direktor kurortdan qaytib, idoraga kelganini aytdi. U kiyinib, uyidan zo‘rg‘a chiqdi. Sochsiz boshi yuzlariday qip-qizil, qop-qora ko‘zlar chiroyli, lablari go‘daklarnikiday juda yupqa, qoshlari siyrak direktor bir soxta tabassum qildi-da, yana asliga qaytdi: – Ja, yangilik ko‘p-u. Bizning aqlimiz yetmabdi-da shularga. Buni qarang-a...

Kutilmaganda direktor ko‘zlarining oqi ko‘payib, qorachiqlari qayoqqadir yo‘qolib qolganday bo‘ldi.

– Bu – madaniyat bog‘il! Bu yerda parrandalar emas, xalq hordiq chiqarishi kerak! Tayba, hamma daraxtlarga uya qo‘ndirib chiqibdi-ya. Hammayoq musicha tezagi... Nima, bu zooparkmi?..

– O‘rtoq direktor, qushlar ham xalq...

– Siz rahbarmi yo kaptarboz oktyabryatmi? Marhamat, yozing ariza. Aqli kirib qolar, bolaligini tashlar, deb shuncha sabr qildim, yetar...

U direktor surib qo‘ygan qog‘ozni oldi-da, o‘z xonasiga chiqib, ariza yozdi. Ariza yozganida yuragi yomonlashdi. Shunda zo‘r sog‘inish bilan musichalarini ko‘rgisi, ular bilan muloqotda bo‘lgisi keldi. Qorovulxonaga borib alanglab, turib qoldi. Musichalar yo‘q. U stol, shkaf taglarini, deraza pardalari orqasini qaradi – yo‘q. Qorovul ham yo‘q. Direktorning eshigi oldiga kelib entikib:

– Musichalarimni ko‘rmadingizmi? — dedi.

– Ana hovlida. */4/ O‘zlaridan ko‘rsin, haydadim, ketmadi... – dedi direktor boshini ko‘tarmay.* U shoshib hovliga chiqdi. Chiqindilar qutisida musichalar boshlari orqasiga qayrilib yotardi... Uning yuzlari oqarib, lablari pirpiridi. Boshi g‘uvillab, butun fikr-u xayollari tumanday xiralashib, ko‘zlar hech narsani ko‘rmay qoldi. Entikib, chuqur nafas olmoqchi bo‘ldi-yu, ammo nafasi yetmadi. Yuragini xuddi bir maxluq panjalari tirnoqlarini botirib changallaganday, keyin esa birdan... g‘ijimlaganday bo‘ldi. Ko‘kragini ushlab ingrab, siniq ovoz bilan: a-a-a-a-a... dedi, skameykaga o‘tirib qoldi.

U o'ziga kelib, boshida unga termulib turgan qorovul bilan direktorni ko'rdi. Direktor jilmaydi:

– Ayyorlik qilmang-e, qo'rqtivordingiz. Ariza yoz, deb shunchaki aytdim-da...

U yorug' olamga qaradi... Xuddi Shishkinding rasmlarini tomosha qilayotganday hayotga suqlanib-suqlanib termildi. Shunda, olcha shoxiga qo'nib turgan musichaga ko'zlar tushdi. Uning musichalariga juda o'xsharkan. Musicha bir nag'mada kukuladi:

– Ku-ku-ku...

Tabassum! Uning oppoq yuzlarida ma'yus tabassum...

23. Qaysi talqin matn mazmuniga mos?

- A) *Musicha boquvchisi kishi tishlari nuqsonidan uyalgani uchun kulganda lablarini bir-biriga qattiq bosib turar edi.*
- B) *Musicha boquvchi kishi boshqalardan ko'ra uquvliroq bo'lish uchun har yili xorijiy jurnallarga obuna bo'lar edi.*
- C) *Qushlarning daraxt shoxlarida sayragan sho'x nag'malari "Munojot" kuyiga hamohang ekanligi aytildi.*
- D) *Musicha boquvchi kishi qushlar o'zlarini tabiatga yaqinroq his qilishlari uchun ularga yog'ochdan uya yasab berdi.*

24. Matn mazmuniga muvofiq ma'lumotni aniqlang.

- A) *Musicha boquvchi musichalaridan ayrilsa ham, olcha daraxtida sayragan musichalarni ko'rib quvonadi.*
- B) *Musicha boquvchi avval ham kaptar boqqani uchun kaptar bolachalarining nima yeyishini biladi.*
- C) *Direktor kaptar boquvchini madaniyat bog'iga zarar yetkazgani uchun ishdan bo'shatib yuboradi.*
- D) *O'zaro munosabatlar uchun ikki davlat aynan kaptarlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida shartnoma imzolaydi.*

25. Matnda arab raqamlarida ajratib ko'rsatilgan parchalarda ifodalangan mazmun qaysi javobda **XATO** izohlangan?

- A) *1-parchada qahramonning go'zallikka tashna inson ekanligi aks etgan.*
- B) *2-parchada qahramonning ajablanish, hayron qolish holati ifodalangan.*
- C) *3-parchada qahramonning voqeaga e'tirozi munosabati aks etgan.*
- D) *4-parchada qahramonning o'zini oqlashga urinishi ifodalangan.*

26. *Idora supurish uchun ishlatiladigan paqirlarning biriga picha loy olib keldi-da, o'rik shoxchasini loyga suqib qo'ydi. Paqir atrofiga don sochib, kichkina mis idishda suv olib keldi.*

Musicha boquvchi nima uchun bu ishni qildi?

- A) *U direktorni xursand qilmoqchi edi.*
- B) *U qushlarning o'zi bilan qolishini xohlardi.*
- C) *U qushlarni tutib olib ko'rmoqchi edi.*
- D) *U qushlarning sayrashini eshitishni istardi.*

27. Matn mazmuni haqida qaysi talqin **YANGLISH**?

- A) *Direktor go'zallikka bee'tiborligi uchun musicha boquvchini tushunmadi.*
- B) *Direktor ko'zidagi kutilmagan o'zgarish uning taajjublanganini ifodalar edi.*
- C) *Direktor musicha boquvchining bachkanaligi uchun ustidan kuladi.*
- D) *Musicha boquvchi boshlig'ini qushlarga mehribon bo'lishga undaydi.*

1. *Bu elda bordur ikki moh paykar,
Biri qand-u, birisi shahd-u shakkar.*
2. *Birining orazi xurshedi tobon,
Birining ko'zlarini kuffori Xaybar.*
3. *Birining zulf-u xoli dona-vu don,
Birining qomati sarv-u sanubar.*
4. *Birining lablari yoquti serob,
Birining tishlari pokiza gavhar.*
5. *Birining g'abg'abidur sebi siymin,
Birining ikki bodomi muqashshar.*
6. *Biri sultoni iqlimi malohat,
Biri husn elida Xoqon-u qaysar.*
7. *Birining g'amzasasi jarrohi ustod,
Birining kirpugi almos xanjar.*
8. *Birining ikki qoshidur yangi oy,
Birining tal'atidur iydi akbar.*
9. *Biriga choker-u banda Atoyil,
Biriga xodim-u doi'yil kamtar.*

28. G'azal matla'si haqida quyidagi talqinlarning nechktasi to'g'ri?

1. *Yorning oshiq joniga qasd qiluvchi ikki qoshi yangi chiqqan oyga o'xshatilgan.*
2. *Elda qand va shahd-u shakar kabi ikki nafar ma'shuqa borligini tasvirlangan.*
3. *Ma'shuqa lablari shirinligi jihatidan qand-u shakarga o'xshatilgan.*
4. *Yorning oshiqni o'ziga rom etuvchi ko'zlarini ikki oyga qiyoslangan.*
5. *Osmonda oy va quyosh tun-u kunni yoritib turishi tasvirlangan.*
6. *Ma'shuqaning ikki yuzi tunni yorituvchi oyga menzangan.*

A) 2 tasi B) 4 tasi C) 5 tasi D) 3 tasi

28. G'azal baytlari haqida qaysi ma'lumot to'g'ri?

- A) 3-baytda yorning sochlari shamolda yerga sochilgan don kabi yoyilishi aks etgan.
- B) 2-baytda yor ko'zlarini ta'riflash uchun talmeh she'riy san'atidan foydalaminigan.
- C) 3-baytda yorning qaddi qomati tiklikda sarv daraxtini ortda qoldirgani ifodalangan.
- D) 2-baytda yor yuzlari ishq ahliga birday boqqani uchun quyoshga tashbeh qilingan.

LUG 'A T:

1. Serob – duraxshon, yarqiroq.
2. Seb – zanaxdon – bag'baqa.
3. Siym – 1) kumush, tanga, pul; 2) oqlik, oqbadan.
4. G'abg'ab – iyak, baqbaqa, soqoq
5. Muqashshar – ixchamlashtirilgan qisqartirilgan.
6. G'amza – noz va dilbarona ishva bilan kiprik qoqib, ko'z suzib qarash; noz-karashma.
7. Kirpik – kiprik.
8. Iyd – bayram, hayit, diniy bayram.
9. Akbar – eng kata, eng ulug', ulkan.
10. Choker – xizmatkor.
11. Banda – qul.
12. Xodim – xizmatchi, mulozim
13. Doi'ya – 1) orzu, maqsad; istak, xohish, iroda; 2) taqozo; 3) chaqiriq, tilak izhor etmoq.

29. G'azal baytlari haqida qaysi ma'lumot to'g'ri?

- A) 4-baytda ma'shuqa lablari qizillikda yoqutdan ortiqligi tasvirlangan.
- B) 5-baytda ma'shuqaning qulqalaridagi halqalari bodomga qiyoslangan.
- C) 4-baytda ma'shuqa tishlariga poklikda gavhar ham tenglasholmasligi ifodalangan.
- D) 5-baytda ma'shuqa baqbaqasi shaklan va rangi jihatidan kumushga o'xshatilgan.

30. Qaysi talqin g'azal mazmuniga **ZID**?

- A) 7-baytda yorning g'amzasasi oshiqni qiy nab davolovchi ustozga o'xshatilgan.
- B) 6-baytda yor husni ta'rifida talmeh badiiy san'atidan foydalilanilgan.
- C) 7-baytda yor kipriklari o'rkirligi uchun olmos xanjarga qiyoslangan.
- D) 6-baytda yorning qo'zallikda tengsizligi tasvirlangan.

31. G'azal baytlari haqida qaysi talqin to'g'ri?

- A) Maqtada shoir o'z qo'lli ostidagilarga kamtarona muomala qilishi aks etgan.
- B) 8-baytda ishq ahli yor yuzi uchun bu dunyoda shod bo'lolmasligi ifodalangan.
- C) Maqtada shoir yor buyrug'ini bajo keltirishga bel bog'lagani aks etgan.
- D) 8-baytda yor qoshlari nozik va serkarashma bo'lgani uchun oyga o'xshatilgan.

Gaplar (33–35) va ularning sintaktik tahliliga oid izohlar(A–F)ni o‘zaro to‘g‘ri moslashtiring.

DIQQAT! Javob variantlaridan ikkitasi ortiqcha.

33. _____

Ikki karra ikki – besh.

34. _____


Uning egnida qadimona tikilgan uzun shohi ko‘ylak, boshida baytlar yozilgan katta “sanama” ro‘mol.

35. _____

Istasangiz, tiz cho‘kayin oyog‘ingizga, Sizga, buyuk qalbli inson, ulug‘ munajjim.

- A) *to‘liqsiz gap*
- B) *kiritma gap*
- C) *egasi (shaxsi) noma’lum gap*
- D) *ikki bosh bo‘lakli gap*
- E) *istak gap*
- F) *uyushiq bo‘lakli gap*

36. Ajratib ko‘rsatilgan har uchala so‘z bilan ma’nodoshlik hosil qila oluvchi birlikni yozing.



Javob: _____

DIQQAT! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

37. Gapdagи **vergul** va **qavs** tinish belgilari o‘rnida qaysi tinish belgisini almashtirib qo‘llash mumkin?

U viloyatdan xat olib kelib, (Bu xatga viloyatning qishloq xo‘jaligi bo‘yicha rahbari imzo chekkan edi) tumanga tegishli qurilish materiallari hisobidan kata bir qismini o‘marib ketgan edi.

Javob: _____

DIQQAT! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

38. Gapda qaysi qo'shimcha usluban xato qo'llangan?

Kishining saxovatpeshaliligi unda
insoniyat jamiyati a'zosiga zeb
beradigan barcha xislatlar
marjудligidan dalolat bersa,
uning ziqnaligi bu xislatlarning
yo'gligidan dalolat beradi.

Javob: _____

DIQQAT! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

39. Gapni sintaktik tahlil qiling va qaysi bo'lak(lar) uyushganini yozing.

Barcha yaxshi kitoblar bir jihat bilan –
o'qib tugatayotganingiz sari ro'y berayotgan
voqealar: yaxshilik yoki yomonlikmi,
hayajon, g'amginlik va afsus-nadomatlarmi,
odamlar va joylarmi, hatto ob-havo
qandayligigacha o'xshash, xuddi sizda yuz
berayotgandek bo'ladi va bular bir umrga
ko'nglingizga o'rashib qoladi.

Javob: _____

DIQQAT! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

40. Berilgan gapdagi so'zlarning mazmun va grammatik jihatdan bog'lanishini tahlil qiling.

Urushda /1/ oqpodshoning qo'li baland emasligidan boyvachchaning /2/ dili siyoh bo'ldi.

a) gapda /1/ raqamida ajratib ko'rsatilgan so'zning hokim qismini yozing.

Javob: _____

DIQQAT! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

b) gapda /2/ raqamida ajratib ko'rsatilgan so'zning hokim qismini yozing.

Javob: _____

DIQQAT! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

41. Berilgan gaplarni grammatik jihatdan to‘g‘ri bog‘lang.

*Adolatsizlik qilmaydigan
odamadolatparvar emas.*

?

*Adolatsizlik qilishi mumkin
bo‘la turib, undan o‘zini tiygan
odamginaadolatparvardir.*

a) qanday grammatik vosita yordamida har ikkala gapni mazmun va grammatik jihatdan o‘zaro to‘g‘ri bog‘lash mumkin?

Javob: _____

DIQQAT! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

b) ushbu grammatik vosita gapda qanday mazmuniy munosabatni yuzaga chiqargan?

Javob: _____

DIQQAT! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

42. Quyidagi she’riy parchani tahlil qiling va savollarga javob yozing.

*Og‘zingda so‘rub bilmaduk, illo, qil uchincha,
Belingda tilab topmaduk, illo, kamar, ey jon.*

a) birinchi misrada og‘iz nimaga o‘xshatilgan?

Javob: _____

DIQQAT! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

b) ikkinchi misrada bel nimaga o‘xshatilgan?

Javob: _____

DIQQAT! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

43. Quyidagi she'riy parchaning qofiyasini tahlil qiling va yozing.

*Kel, ey dilbarki, bo'ston vaqtি bo'ldi,
Gul ochildi, guliston vaqtি bo'ldi.*

- a) baytda ajratib ko'rsatilgan so'zlardagi raviyni yozing.

Javob: _____

DIQQAT! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

- b) ushbu tovush raviy o'rniغا ko'ra qofiyaning qaysi turini hosil qilgan?

Javob: _____

DIQQAT! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

44. Berilgan tuyuqni shakl va mazmun jihatdan tahlil qilib, savollarga javob yozing.

*Dilrabo, hajring o'tida yonamen,
O'rtanib vasing tilarmen yona men.
Ka'ba azmidin manga san muddao,
Bo'lmasang, albatta, andin yonamen.*

- a) uchinchi misrada ajratilgan so'zning taqte' (chizma)sini aniqlab, yozing.

Javob: _____

DIQQAT! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

- b) to'rtinchi misradagi *yonamen* so'zi qanday ma'noda qo'llangan?

Javob: _____

DIQQAT! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

Quyidagi vaziyatlardan birni tanlang va ushbu vaziyat yuzasidan o‘z munosabatingizni yozma bayon qiling.

- 1. Ayrimlar maktablarda farzandlarimizga diniy ta’lim fan sifatida kiritilishi kerak, deb hisoblaydi, boshqalar esa bunga zarurat yo’qligini ta’kidlaydi.**
- 2. Ayrimlar universitetlar talabalarni ish bilan ta’minlashi kerak, deydi, boshqalar esa bu har kimning shaxsiy mas’uliyati ekanligini ta’kidlaydi.**
- 3. Ayrimlar har yili ts’lim tizimida islohotlar bo’lishi kerakligini aytsa, boshqalar barqarorlik muhim, deb ta’kidlaydi.**
- 4. Ayrimlar ta’lim tizimida testlar o’quvchilarning bilimini aniq, tez vaadolatli baholovchi vosita, deb bilsa, ayrimlar uning ko’plab salbiy oqibatlarni keltirib chiqarayotganini ta’kidlaydi.**
- 5. Ba’zilar o’quvchilarning sportdagi yutuqlari ta’lim ko’rsatkichlari bilan birlashtirilishi kerakligini aytsa, boshqalar sport bilan ta’lim alohida yo’nalish sifatida qolishi kerak, deb hisoblaydi.**

- Fikr-mulohazalaringizni mantiqiy izchillikda, adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda publisistik uslubda bayon qiling.

Esse uch tarkibiy qismdan iborat bo’lishi lozim:

I. Kirish.

- 1) kirish qismi ikki-uch jumladan iborat bo’lishi lozim; 2) berilgan vaziyat matnini aynan ko‘chirmang.

II. Asosiy qism.

- 1) asosiy qism kamida uchta xatboshidan iborat bo’lishi lozim, har bir xatboshida tomonlarning qarashlari va shaxsiy qarashlaringizni batafsil yoriting;
- 2) berilgan vaziyat yuzasidan turli qarashlarni hayotiy misollar bilan dalillang;
- 3) shaxsiy mulohazalaringizni batafsil va dalillar asosida yoriting;
- 4) bayon qilinayotgan barcha fikr-mulohazalar faqat mavzu doirasida bo’lishi lozim.

III. Xulosa.

- 1) asosiy qismda ifodalangan fikr-mulohazalarni umumlashtiring;
- 2) xulosa ikki-uch jumladan iborat bo’lishi lozim.

DIQQAT! Esse 100 so‘zshakldan kam bo‘lsa, tekshirilmaydi va 0 ball bilan baholanadi.
Esse uchun reja tuzilmaydi, epigraf qo‘yilmaydi.

“BARCHA ISHINGIZNI GO’ZAL QILING”.

Eslatma! Test topshiriqlarini muallif rozilgisiz nusxalash, ko‘paytirish va ko‘chirish qat’iyan taqiqlanadi.

ESSE UCHUN QORALAMA

Muhyiddin Shodmonov

Telegram guruhimiz:

@Ona_ tili _ Muhyiddin _ Shodmonov

